

Ўзбекистон республикаси халқ таълими вазирлиги
Республика таълим маркази

**Айрим фанлар чуқур ўрганиладиган давлат
ихтисослаштирилган умумтаълим
муассасаларининг 3-4-синфлари учун
Муסיқа маданияти фанидан 0,5 соатга
қисқартирилган**

Ўқув дастури

ТОШКЕНТ-2015 йил

Тузувчи:

Г. Ғаниева – Республика таълим маркази бош методисти

Uqtirish xati

Ushbu o'quv dasturlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida Davlat ta'lim standarti asosida musiqa madaniyati fanini o'qitishning mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iborat.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarning musiqiy madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta'limiy – tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

- Ta'limiy vazifa – Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilarning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini, musiqiy uquvi, musiqa savodini, ritm tuyg'usi, musiqa xotirasini rivojlantirish, musiqaning ohang tabiati, musiqiy janrlar, obrazlar asosida musiqa asarlarini bir-biriga taqqoslash, alohida musiqa cholg'ulari, xor va orkestr turlari sadolanishini farqlash, yakka va jamoa bo'lib kuylash hamda shuning vositasida ularda vokal-xor malakalarini shakllantirish lozim. Bu vazifalarni amalga oshirishda xar bir o'quvchini alohida o'rganish, undagi musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va sinfning imkoniyatlarini aniq xisobga olgan holda repertuar tanlash turli pedagogik usullardan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy vazifa – o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va jahon musiqa hamda boshqa san'at turlarining yuksak namunalaridan bahramand qilish asosida tarbiyalash, musiqa madaniyati bo'yicha bilim asoslarini o'rgatib, ularni san'at olamiga yetaklash, estetik dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, jahon klassik musiqa adabiyoti, o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalari, ustoz-shogird an'analari asosida shakllangan nafis san'atning barcha turlaridan bahramand qilish va estetik bilimlar targ'ibotini yo'lga qo'yish, ma'naviy-ahloqiy, aqliy, estetik, ekologik, vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlarini shakllantirib borish. O'quvchilarda ijodiy mahorat nafosat va badiiy didni o'stirish, fikr doirasini kengaytirish, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash.

-Rivojlantiruvchi vazifa – Musiqa asarlarini tinglash, qo'shiqlar kuylash orqali o'quvchilarda musiqiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirish. Yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish;

-Ijodiy vazifa – uy sharoitida, do'stlar va tengdoshlar davrasida, maktab bayramlarida qo'shiq kuylash; musiqa haqida fikrlash, eshitilgan musiqaga

nisbatan o'z munosabatini bildirish; musiqa haqidagi adabiyotlar bilan tanishish, darslardan tashqari vaqtda musiqa tinglash (konsertlar, musiqali spektakllarga borish, musiqali radioeshittirish, teleko'rsatuvlar va h.k.larni tinglash va tomosha qilish); musiqiy voqyelikka nisbatan o'z munosabatini aniqlash, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalari asosida shaxsiy musiqiy taassurotlarini og'zaki yoki yozma tarzda ifoda eta olish;

Musiqa madaniyati va san'at o'quv fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Musiqa madaniyati fanining vazifalari: Davlat ta'lim standarti asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim, ko'nikma va malakalari bilan birga ularni kuzatuvchanlik,. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mazkur **dasturning asosiy mohiyati** quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi va saboq chog'ida musiqaning muayyan mohiyatini tushunishga yordam beradi;

2. Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi;

3. Dars mavzusining qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqs va musiqali ritmik harakatlar, bolalar cholg'u asboblari-shiqildoq, doiracha, qoshiq va boshqalarda musiqaga jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi musiqa faoliyatlari qo'llaniladi.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha musiqa faoliyatlari dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bo'lagi sifatida amal qiladi. Bu jihatdan «Musiqa madaniyati» o'quv fani kompleks integral aralash dars turiga kiradi va unda darsning umumiy mavzusiga bo'ysunuvchi, o'zaro mantiqan bog'lanuvchi quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi;

-musiqa tinglash,

-jamoa bo'lib kuylash,

-musiqa savodi,

-raqs va ritmik harakatlar,

-chapak va bolalar cholg'u asboblari chalish hamda musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat bo'lib, u quyidagicha amalga oshiriladi:

-ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuiga doir oddiy musiqiy-pedagogik tahlil etiladi. Eshitish orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimlarga ega bo'linadi.

-musiqa asarlari avval tinglanib (idrok etilib), so'ng u yoki bu faoliyati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi.

Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida (tasma orqali ham) bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi; raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so'ng, raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi.

Ko'p xollarda asarlar bir necha faoliyat uyg'unligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va boshq.) o'rganiladi. Bunday mashg'ulot usuli asarni puxta o'rganish xamda kompleks malakalarning rivojlanishi uchun imkon yaratadi. «Musiqa madaniyati» darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zahirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi.

Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylash, raqs va h.k) qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va h.k) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini (musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq, bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshq.) singdirib borishdan iborat.

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyati o'zaro uzviy bog'lanishi bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa –o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz-ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, **musiqali harakatlar hamda ijodkorlik** faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlarini yaratadi.

Dasturda **raqs va musiqali harakatlarga** alohida o'rin berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlantirish uchun ham muhimdir. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarur. Darsda o'rganiladigan raqs va harakatlar boshqa dars chog'ida (jismoniy tarbiyada, tanaffuslarda) keng qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

Chapak va bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyati ham raqs va musiqali harakatlar singari o'quvchilarning musiqa (o'quv qobiliyatlari) hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat

boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doiracha, qayroq, qoshiq, kichik sopol kabi urib chalinadigan cholg'u asboblari foydalanib, o'qituvchi ijrosi yoki magnitofon tasmasi orqali taraladigan kuylarga jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

Musiqai ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun ahamiyatga egadir. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosida doira chertib jo'rnavozlik qilish, sinf ijrosiga «Dirijorlik» qilish, kuy ohangiga mos harakatlar (xususan, raqs) topish, she'r parchasiga kuy «Bastalash» kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi.

Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq.

Jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash, raqs va harakatlar, shuningdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda beriladi. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin.

Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishni taqazo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni kuchaytirmoq lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida-alohida ko'rsatilgan bo'lsada, ammo darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi. Dastur yakunida yil davomidagi musiqa ta'limi mazmunidan o'quvchilarning olishi zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarining aniq mezonlariga asoslanib ish tutishga imkon beradi.

3-SINF

Yil mavzusi: “MUSIQADA SHAKL VA MAZMUN” (17 SOAT)

1-Chorak

Mavzu: «Musiqaning tuzilishi» (Musika nutqi)

Musika tinglash

1. «O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi». A.Oripov sheri, M.Burxonov musiqasi.
2. R.Abdullayev bolalar uchun yozilgan CD yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash
3. «Dilxiroj». O‘zbek xalq kuyi
4. “Bolalar uchun vals” D. Zokirov musiqasi.
5. «Jonon». M. Mirzaev musiqasi.
6. “Ufor III” (qizlar raqsi)
7. Farhod Alimov bolalar uchun yozilgan CD yoki DVD qo‘shiqlardan tinglash
8. «Boychechak». O‘zbek xalq kuyi.

Jamoa bo‘lib kuylash

1. «O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi». A.Oripov she'ri, M.Burxonov musiqasi.
2. «Qo‘zichog‘im». I.Sulaymon she'ri, P.Abdullaev musiqasi.
3. “Salom maktab” I.Muslim she'ri, F.Nazarov musiqasi
5. «Diyor madhi» Habib Raxmat she'ri N.Norxo‘jaev musiqasi
6. “Oppoq qandim” P.Mo‘min she'ri. F.Alimov musiqasi
7. «Kakku». ITo‘lqin she'ri, .Hamroev musiqasi

Musika savodi.

Aytim mashqlar va qo‘shiqlarni o‘qituvchi ovoziga ergashib kuylash («Yulduzlar», «Teplovoz») do- major va lya minor tovush qatorlarini 2/4 o‘lchovida dirijyorlik qilib kuylash. Chorak va nim chorak pauzalarni bilish.

Cholg‘u asboblariida ijro etish va musiqaviy-ritmik harakatlar bajarish

Doirachalar, shiqildoqlar, qo‘shiq va boshqa urma cholg‘u asboblariida chalib musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish. Cholg‘u asboblari tovushlarini ovozda taqlid qilib kuylash. Musika tavsifini raqs va turli harakatlarda ifodalab ko‘rsata olish.

2-Chorak

Mavzu: Ansambl va uning turlari. “Xor va Orkestr”

Musiqing tinglash

1. CD yoki DVD yordamida cholg'uchilar ansambli ijrosida kuylardan tinglash
2. «Maysa». Sh.Yormatov musiqasi.
3. “Laylak” (a kapyella) Uyg'un she'ri, G'. Qodirov musiqasi.
4. “Shodiyona” G'.Qo'chqorov musiqasi.
5. “Zafar” O'zbek xalq kuyi.
6. «Raqs». G.Qodirov musiqasi.

Jamoa bo'lib kuylash

1. “Soat qo'shig'i” Rauf Tolib she'ri, N.Norxo'jaev musiqasi
2. «Qo'shig'imiz avjida».G'Komilov she'ri, T.Azimov musiqasi.
3. “O'zbekiston kemasi” Y.Mirzo she'ri I. Hamroev musiqasi
4. “Yangi yil” Sh. Sa'dullar she'ri I.Akbarov musiqasi
5. «Yangi yil qo'shig'i». V.Hikmat she'ri, K.Abdullaev musiqasi.
6. ”Quvnoq bolalar qo'shig'i” X.Qayumov she'ri, G'Qodirov musiqasi
7. «Yangi yilim–yaxshi yilim». P.Mo'min she'ri, D.Zokirov musiqasi.

Musiqing savodi

Major va minor ladi haqida tushuncha hosil etish, ularni asarlar tavsifidan ajratish. Musiqing tavsiflarining shakllanishida surat va usulning ahamiyati. Tinglanadigan asarlar tavsif xususiyatlarini usullar ifodasida aniqlash.

3-chorak

Mavzu: “Oddiy musiqing shakllari. Band va naqorat”

Musiqing tinglash

1. «Qor». Zulfiya she'ri, Sh.Yormatov musiqasi.
2. “Samoj dugoh” o'zbek xalq kuyi.
3. «Men g'unchaman». N.Narzullaev she'ri, H.Rahimov musiqasi
4. «Lazgi». Xorazm xalq kuyi.
5. «G'ildiragim». Sh.Yormatov musiqasi.
6. «Lolacha». O'zbek xalq kuyi.
7. “Bibigul” O'zbek xalq kuyi
8. “Баҳор вальси” M.Мирзаев musiqasi
9. “Raqs” O'zbek xalq kuyi

Jamoa bo'lib kuylash

1. “Yosh askarlar qo'shig'i” S.Barnoyev she'ri, S.Jalil musiqasi
2. “Boychechagim omonlik” Q.Ota she'ri, N.Norxo'jayev musiqasi
3. «Yosh askarlar qo'shig'i» S.Barnoev she'ri, S.Jalil musiqasi
4. “Navro'zim” Sh.Qurbon she'ri, D.Omonullayeva musiqasi

5. «Sumalak eng kerak» P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jaev musiqasi
6. «Shirin-shirin». I.Jiyanov she'ri, X.Xasanova musiqasi.

Musiqqa savodi

Alteratsiya belgilari (diez, bemol, bekar) haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Major va minor ladlari va uning asosiy uch tovushliklarini qo‘l harakati ishoralai bilan ifodali kuylash

4-chorak

Mavzu: «Musiqaning ifoda vositalari»

Musiqqa tinglash

1. «Hoy, lola» O‘zbek xalq kuyi. E.Shukrullaev qayta ishlagan.
2. «Garduni segoh» Segoh maqomidan.
3. «Nayrez» tojik xalq kuyi
4. «Yog‘och soldatlar marshi» P.I.Chaykovskiy musiqasi
5. «Usmoniya» O‘zbek xalq kuyi.
6. «Humo qushim». B.Umidjonov musiqasi.

Jamoa bo‘lib kuylash

1. «Lola» I.Muslim she‘ri, X.Hasanova musiqasi
2. «Svetofor» Safo Ochil she‘ri, S.Nurmetov musiqasi.
3. «Varrak» U. Abduazimova she‘ri, I.Yo‘ldosheva musiqasi
4. Qo‘zilarim». O.Qo‘chqorbekov she'ri, F.Nazarov musiqasi.

Qo‘shimcha materiallar

1. «Navro‘z keldi» Y.Ho‘jaev she'ri, L.Mujdabaeva musiqasi.
2. «Salimjon-nimjon». P.Mo‘min she'ri, A.Muhamedov musiqasi.
3. «Kakligim».N.Orifjonov she'ri, N.Norxo‘jaev musiqasi.
4. «Piyoda askarlar qo‘shig‘i». Qambar Ota she'ri, A.Mansurov musiqasi.
5. «Kamalak izlayman». P.Mo‘min she'ri, Q.Komilov musiqasi.
6. «Navbahor». Sh.Shoxismoilov she'i, P.Tupsunov musiqasi.
7. «Balig‘im». P.Mo‘min she'ri, N.Norxo‘jaev musiqasi.

Musiqqa savodi

Major va minor uchtovushligi va tovush qatorini nota yozuviga qarab kuylash va ularni lad ohangiga qarab ajratish. Uchtovushliklarni bosh pardasiga tayanib kuylash. Kuylanadigan qo‘shiqning ohangiga qarab ladini aniqlash. Qaytariq (repriza) haqida tushuncha hosil qilish

Alteratsiya belgilari: diez, bemol, bekar. 2/4 va 3/4 o‘lchovlarida belgilangan qisqa kuy mashqlarini o‘lchoviga muvofiq takt chiziqlarini qo‘yib chiqish.

Dinamik belgilaridan forte va pianoni bilish.

4- SINF (17 soat)

Yil mavzusi: «O‘zbek halq musiqa ijodi»

Mavzu: «Xalq aytimlari va cholg‘ulari»

Musiqa tinglash

1. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” A.Oripov she‘ri, M.Burxonov musiqasi
2. “Ox, layli”, Xo‘p xayda”, “Urchuq” O‘zbek halq qo‘shiqlari.
3. Bolalar uchun yozilgan “Lapar” qo‘shiqlardan CD yoki DVD disklarda tinglash
4. “Yallama yorim” O‘zbek xalq yallasi
5. “Ajam II” (taronasi) an'anaviy cholg‘u kuylari yozilgan CD yoki DVD disklaridan foydalanib, kuylar tinglash
6. Damli va zarbli cholg‘ular ijrosida kuylar tinglash 7. «Ajam taronalari» an'anaviy cholg‘u kuylari

Jamoa bo‘lib kuylash

1. «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi» A.Oripov she'ri, M.Burxonov musiqasi.
- 2 “Shaftoliga savolim” P.Mo‘min she‘ri, N.Norxo‘jaev musiqasi
3. “Bolalik” Dilnur she'ri, X.Xasanova musiqasi
4. “Bizdan sizga kim kerak?” Ya. Qurbonov she‘ri, M.Nasimov musiqasi
- 5 “Maktab” K.Turdiyeva she‘ri J.Abduraxmonov musiqasi.

Musiqa savodi

Quyi sinfda olingan bilim va malakalarga asoslanib, aytim mashqlari va qo‘shiqlarini nota bilan kuylash Ton va yarim ton haqida o‘quvchilar bilimini mustaxkamlash. Lad haqidagi bilim va malakalarni mustahkamlash. Major va minor uchtovushliklar va tovushqatorlarini jo‘rlik va jo‘rsiz eshitish hamda taqqoslab aniqlash, so‘ng kuylash. 4/4 o‘lchovini aytim mashqlari va asarlar misolida o‘rganish.

3/4 va 4/4 o‘lchovlarini kuchli va kuchsiz hissalariga taqqoslash yo‘li bilan farqini ajratish. Chorak, yarim va butun notalarni hamda shu o‘lchovdagi pauzalarni bilish.

2/4, 3/4, 4/4 o‘lchovli mashq va qo‘shiqlarni tinglash va kuylash.

Musiqa tavsiflarini raqs harakatlarida ifodalash

(«Yali-yali», «qashqarcha», «Ufori», «Andijon polkasi»).

Urma cholg‘u asboblari, chapakda yoki barmoq uchi bilan chertib, musiqa usuliga ritmik jo‘r bo‘lish.

2-Chorak

Mavzu. «Bayram va marosim qo‘shiqlari». Musiqqa tinglash

1. “Charx-II” o‘zbek xalq kuyi
2. «Surnay navosi». An'anaviy cholg‘u kuyi. “Yor-yor” lardan namunalar tinglash
3. Turli millat kuylaridan namunalar tinglash
4. “Alla”lardan namunalar tinglash.
«Dilhiroj». O‘zbek halq kuyi.
4. «Norim-norim». An'anaviy cholg‘u kuyi.
5. «Duchava». An'anaviy cholg‘u kuyi.
6. «Ramazon». Aytimlardan namunalar.
7. «Yangi tanovar». M.Mirzaev musiqasi.
8. «Alla»lardan namunalar.

Jamoa bo‘lib kuylash

1. «O‘zbekistonim». Q.Ota she‘ri, L.Mujdaboeva musiqasi.
2. “Yaxshi bola” P. Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.
3. “Kulcha non” R. Mo‘min she‘ri, I.Hamroyev musiqasi.
4. “Oyijonim allasi” T.Mahmudov she‘ri, F.Alimov musiqasi.
6. «Archa qo‘shig‘i». A.Bo‘riboev she‘ri, A.Muhamedov musiqasi.

Musiqqa savodi

Do major- Sol major va Iya minor-mi minor tonliklarini qiyoslab tinglash va kuylash misolida tonlik haqida umumiy tushuncha hosil qilish. Ularni turli ritmik tuzilishda (tovush cho‘zimlarining almashishi, punktir ritm va turli o‘lchovlarda) kuylash. Mazkur tonliklarda vokal mashqlarda hamda qo‘shiq va kuylarning notaga qarb taktilab kuylash.

Qo‘shiqlar misolida 6/8 o‘lchovi bilan tanishish. Mazkur o‘lchovda mashq va qo‘shiq («Chamanda gul») kuylash.

3-Chorak Mavzu: «Mavsum qo‘shiqlari»

Musiqqa tinglash

1. “Qorbo‘ron” A.Mansurov musiqasi.
2. “Sovuq kimni izlaydi” P.Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi
3. «Qorbo‘ron». A.Mansurov musiqasi.
4. T.Jalilov asarlaridan “Signal” kuyi CD yoki DVD disklarda parcha tinglash.
5. “Mirzadavlat” an'anaviy cholg‘u kuyi.
6. “Ramazon” aytimlaridan namunalar tinglash.
7. “Navro‘zi ajam” o‘zbek an'anaviy kuyi.
8. «Boychechak». (turli namunalarni tinglash).

Jamoa bo'lib kuylash

1. «Biz askarmiz». I.Rahmon she'ri, N.Norho'jaev musiqasi.
2. «Navbahor» N.Narzullaev she'ri, G.Qo'chqorova musiqasi
3. «Kovushim». O'zbek halq hazil qo'shig'i.
4. «Onajonim sog' bo'ling» M. Dadaboyev she'ri va musiqasi.
5. «Navro'z» qo'shig'i N.Narzullayev she'ri. N.Norxo'jayev musiqasi.
6. «Yumalab –yumalab» o'zbek xalq qo'shig'i
4. «Bahor keldi». O'zbek halq qo'shig'i.
5. «Sariq jo'ja». F.Alimov musiqasi.
6. «Navro'zim». Sh.Qurbonov she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.

Musiqi savodi

Major va minor tovush qatorini nota bilan kuylash. Major tovush qatorini avval choraklik (notalarda 2 /4 do-do, re-re, mi-i va boshqalar), so'ng punktir ritmlar (, , , va hakoza) taktilab kuylash. O'qituvchi ovozigacha jo'r bo'lib hamda mustaqil tarzda 4/4 o'lchovidagi aytim mashqlar, kuy va qo'shiqlardan parchalarni notalarga qarab kuylash. Sol major tonligining tuzilishini nota yozuvida o'rganib kuylash.

4- Chorak (8 soat)

Mavzu: «Bahor fasli qo'shiqlari»

Musiqi tinglash

1. «Navro'zi Ajam». An'anaviy cholg'u kuyi.
2. «Bahor». O.Orifjonov she'ri, D.Omonullaeva musiqasi.
3. «Sarbozcha». An'anviy cholg'u kuyi.
4. «Bulbulcha». M.Qo'shoqov she'ri, M.Nasimov musiqasi.
5. «Arg'amchi». O'zbek halq kuyi.
6. «Lola» haqida qo'shiqlardan namunalar.
7. «Yomg'ir yog'aloq». O'zbek halq qo'shig'i.

Jamoa bo'lib kuylash

1. «Gul terdi gullar» P.Mo'min she'ri, N.Norho'jaev musiqasi.
2. «Sho'x bolaman» S.Jabborov she'ri, X.Raximov musiqasi.
3. «Chaqqon bola» P.Mo'min she'ri, F.Alimov musiqasi.
4. «Antiq musobaqa». P.Mo'min she'ri, N.Norho'jaev musiqasi.
5. «Hyey lola». O'zbek halq qo'shig'i.

Musiqi savodi

Fa major- re minor tonliklari turg'un tovushlarni navbatma-navbat kuylash. Ularni turli ritmik tuzilishda kuylash. Mazkur tonliklarni 6/8 o'lchamida kuylash.